

BO'LAJAK DEFETOLOGLARDA PEDAGOGIK MA'SULIYATNI SHAKLLANTIRISHNING USTUVOR TAMOIYILLARI VA MUHIM BOSQICHLARI

N.S.Mirbabayeva

Qo'qon davlat universiteti tayanch doktoranti

Annotatsiya: *Ushbu maqolada bo'lajak defektologlarda pedagogik mas'uliyatni shakllantirishning ustuvor tamoyillari va muhim bosqichlari yoritib berilgan.*

Kalit so'zlar: *defektolog, pedagogik mas'uliyat, tamoyillar, integratsiya*

Аннотация: *В статье рассматриваются приоритетные принципы и важнейшие этапы формирования педагогической ответственности будущих дефектологов.*

Ключевые слова: *дефектолог, педагогическая ответственность, принципы, интеграция*

Abstract: *This article examines the priority principles and key stages in developing the pedagogical responsibility of future special education teachers.*

Keywords: *special education teacher, pedagogical responsibility, principles, integration*

Hozirgi kunda ustuvor tamoyillarga tayanib ish ko'rish malakali mutaxassislarni tayyorlash bilan birga ularda yuqori darajada pedagogik mas'uliyatni shakllantirishda muvaffaqiyatga erishish imkoniyatini yaratadi. Bo'lajak defektologlarda pedagogik ma'suliyatni shakllantirish jarayonida quyidagi tamoyillar ustuvor ahamiyat kasb etadi:

1. Shaxsga yo'naltirilganlik tamoyili. Mazkur tamoyil imkoniyati cheklangan o'quvchilarga ularning individual psixologik, jismoniy-fiziologik holati, shaxsiy sifatlarini, ularga, ularning ota-onalari yoki vasiylariga ko'rsatiladigan psixologik, tibbiy hamd a metodik yordamning xarakteridan kelib chiqqan holda yondashish asosida ta'lim berilishi zarurligini, shu sababli bo'lajak

defektologlarda pedagogik mas'uliyatni shakllantirishda, eng avvalo, ushbu jihatlariga e'tibor qaratish maqsadsadga muvofiqligini ifodalaydi.

2. Fanlararo integratsiya tamoyili. Ushbu tamoyil inklyuziv ta'limning integrativ xarakter kasb etishini, bo'lajak defektologlarda pedagogik ma'suliyatni shakllantirish jarayonini takomillashtirishda defektologiya fanlarining maxsus pedagogika, maxsus psixologiya, "Bolalar anatomiyasi va fiziologiyasi", "Inklyuziv ta'lim nazariyasi", "Klinik asoslar", "Korreksion metodika va texnologiyalar" kabi fanlar o'rtasidagi o'zaro aloqadorlik va bog'liqlikka tayanishini anglatadi.

3. Ilmiy-amaliy yondashuv tamoyili. Nogironligi bor har bir o'quvchi o'ziga xos alohida shaxs. Shu sababli bo'lajak defektologlarda ta'lim muassasalarida yoki uy sharoitida tahsil olayotgan o'quvchilarning individual xususiyatlaridan kelib chiqqan holda ilmiy jihatdan asoslangan metodikalarni amaliy yondashuvlarni oqilona tanlay

olish kompetensiyalarini rivojlantirish talab etiladi. Mazkur tamoyil mana shu holatning mohiyatini yoritishga xizmat qiladi.


4. Uzlüksizlik va tizimlilik tamoyili. Barcha pedagogik jarayonlarda bo'lgani kabi bo'lajak defektologlarda pedagogik mas'uliyatni shakllantirishda ham uzlüksizlikning yetarlicha ta'minlanishi muhim ahamiyatga ega. Qolaversa, bo'lajak defektologlar tomonidan mutaxassislik fanlari, ular bilan o'zaro aloqador o'quv predmetlarining asoslari hamda kasbiy sifatlarning yaxlit holda o'zlashtirilishini ta'minlash jarayoniga tizimli yondashish kutilgan natijalarni qo'lga kiritish uchun imkoniyat yaratadi.

5. Amaliy tajribaga egalik tamoyili. Bo'lajak defektologlarni tayyorlash jarayoni ular tomonidan mutaxassislik va umumiy fanlar asoslarini o'zlashtirish bilangina cheklanib qolmay, balki mavjud bilimlarni amaliy malaka va kompetensiyalarga aylantirish, kasbiy faoliyatda bevosita qo'llay olishni taqozo qiladi. Shu bois o'quv, ayniqsa, amaliy mashg'ulotlar hamda pedagogik amaliyot davrida asosiy e'tiborni bo'lajak defektologlarni kasbiy faoliyatga amaliy jihatdan yetarli darajada tayyorlashga qaratish ular tomonidan kasbiy sifatlarni, jumladan, pedagogik mas'uliyatning evolyutsion tarzda o'zlashtirilishini ta'minlaydi.

6. Kasbiy-axloqiy me'yorlar va inklyuziv g'oyalarga tayanish tamoyili. Umumiy jihatdan olganda ham pedagogik faoliyat ham barcha turdagi ish jarayonlari kabi belgilangan me'yoriy-huquqiy va axloqiy qarashlarga asoslanadi. Shu sababli mutaxassis kasbiy bilimlarni o'zlashtirish bilan o'zaro mutanosib ravishda professional faoliyat asoslarini belgilovchi me'yoriy-huquqiy talablardan xabardor bo'lishi, izchil ravishda ularga qat'iy amal qilish malakalarini o'zlashtira olishi zarur. Mazkur talab psixologik nuqtayi nazardan imkoniyati cheklangan o'quvchilar bilan ishlashda yanada qat'iylashadi. Zero, xalqaro va milliy qonunchilik asoslariga ko'ra nogironligi bor o'quvchilar bilan ishlashda ularning jismoniy-fiziologik, aqliy va hissiy rivojlanish xususiyatlarini, inklyuziv g'oyalarni inobatga olgan holda kasbiy-axloqiy me'yorlarga so'zsiz rioya etilishi zarur. Qayd etilgan tamoyil ana shu maqsadga xizmat qiladi.

7. O'zini-o'zi nazorat qilish va refleksiv baholash tamoyili. Shaxsda ham mutaxassisda ham u yoki bu sifatning rivojlanishi kundalik yoki kasbiy faoliyatni izchil tahlil qilish, mazmuni va natijalarini xolis, refleksiv baholash hisobiga ta'minlanadi. Faoliyatga bu tahlilda yondashish shaxsga ham mutaxassisga ham o'zini o'zini anglash, yutuqlarga erishish omillaridan xabardor bo'lish, yo'l qo'yilgan xato va kamchiliklarni aniqlash, ularni bartaraf etish choralarini belgilash, shaxsiy yoki kasbiy rivojlanishda yangi maqsadlarni belgilash imkoniyatini ta'minlaydi. Ushbu tamoyil ana shu maqsad uchun xizmat qiladi. Shu sababli OTMda bo'lajak defektologlarni tayyorlash, ularda pedagogik mas'uliyatni shakllantirishda o'zini-o'zi nazorat qilish va refleksiv baholash tamoyili o'ziga xos ahamiyat kasb etadi.

Bo'lajak defektologlarda pedagogik mas'uliyatni shakllantirish jarayonining bosqichlari:



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Быкова С.С. Профессиональная ответственность будущего педагога: содержание и структура понятия // Ж. Ярославский педагогический вестник. – Ярославск: 2016.
2. N.Mirbabaeva. Pedagogical basis for increasing the effectiveness of the formation of pedagogical responsibility among future defectologists. American Journal Of Social Sciences And Humanity Research.2024
3. N.Mirbabayeva. Bo'lajak defektologlarda pedagogik mas'uliyatni samaradorligini takomillashtirishning pedagogik asoslari shakllantirish. Qo'qon DPI. Ilmiy xabarlar 2024 3-son
4. Н.С.Мирбабаева. Модель формирования профессиональной мотивации дефектологов - Academic research in educational, 2024 - ООО «Academic Research»
5. Oppokxo'jayev, Xojixuja, and Qunduzabibi Yusupova. "MAXSUS PEDAGOGIKA FANLARINI O 'QITISHDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARGA ASOSLANGAN AMALIY MASHG 'ULOTLARINI LOYIHALASH." Development and innovations in science 2 (2023): 25-31.
6. Oppokkhujoyev, Khojikhujayeva, and Ziyoda Shavkatova. "PEDAGOGICAL CONDITIONS FOR THE FORMATION OF NATIONAL ETIQUETTE SKILLS IN ELEMENTARY SCHOOL STUDENTS OF A SPECIAL EDUCATIONAL

INSTITUTION." International Conference on Multidisciplinary Research. Vol. 1. No. 1. 2023.

7. Oppakhho'jayev, Son Of Khojikhujazimjon. "Technologies For Developing Inclusive Readiness Of Families Based On A Competent Approach." Asian Journal Of Multidimensional Research Issn: 2278-4853.

8. O'G, Oppoxo'Jayev Xojixuja Azimjon. "INKLYUZIV TA'LIM JARAYONIDA BOSHLANG 'ICH SINF O 'QUVCHILARINI ANTROPOSENTRIK YONDASHUV ASOSIDA TARBIYALASHNING ZAMONAVIY USULLARI." Research Focus 4.Special Issue 2 (2025): 112-118.

9. O'G, Oppoxo'Jayev Xojixuja Azimjon. "INKLYUZIV TA'LIMDA ANTROPOSENTRIK YONDASHUVNI SHAKLLANTIRISHDA TAMOIYILLARINING AHAMIYATI." Research Focus 4.Special Issue 2 (2025): 53-58.